

AHOLINI DEMOGRAFIK TARKIBINI O'RGANISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Murodova D.S
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya :Maqolada aholi soni,aholining yosh jins tarkibi,aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.Demografik vaziyatning shakllanishida aholining yosh -jinsiy tarkibi asosiy omil ekanligi demografik jihatdan tahlil etilgan. Aholining yosh tarkibi uning demografik xususiyatlari va turmush darajasiga bo'g'liq ekanligi haqida ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar : Aholi soni, aholi, ishlab chiqarish, aholining yosh tarkibi, aholi takror barpo bo'lishi,tug'ilish, o'lim, nikoh, ajrim,, oilaviy tarkibi, jinsiy tarkib, qarish shkalasi, yosh davlat, demografik tarkibi ,demografik muammolar.

ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО СОСТАВА НАСЕЛЕНИЯ

Муродова Д.С
Преподаватель Каршинского государственного университета

Аннотация: В статье приводятся данные о численности населения, его возрастно-половом составе и закономерностях воспроизводства населения. С демографических позиций анализируется, что возрастно-половой состав населения является основным фактором формирования демографической ситуации. Проанализированы данные о зависимости возрастной структуры населения от его демографических характеристик и уровня жизни.

Ключевые слова: Численность населения, численность населения, производство, возрастная структура населения, обновление населения, рождаемость, смертность, браки, разводы, структура семьи, половая структура, масштабы старения, молодое государство, демографическая структура, демографические проблемы.

ECONOMIC GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE STUDY OF THE DEMOGRAPHIC COMPOSITION OF THE POPULATION

Murodova D.S.
Teacher of Karshi State University

Abstract: The article provides information on the population size, age-sex composition of the population, and the laws of population reproduction. It is analyzed from a demographic perspective that the age-sex composition of the population is the main factor in the formation of

the demographic situation. The data on the dependence of the age structure of the population on its demographic characteristics and standard of living are analyzed.

Keywords: Population, population, production, age structure of the population, population renewal, birth, death, marriage, divorce, family structure, sex structure, aging scale, young state, demographic structure, demographic problems.

Dunyoning alohida hududlarida aholining ko'payib borishi va uning omillari, muammolari o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularning yechimi ko'pchilik aholishunos olimlar e'tiborini tortdi. Aholining sotsial-iqtisodiy va demografik muammolari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borildi. Natijada, aholi muammolari bilan shug'ullanuvchi fanlar tez sur'atda ko'paydi. Ularga falsafa, tarix, sotsiologiya, huquqshunoslik, psixologiya, etnografiya, tibbiyot, biologiya, demografiya, ekologiya, iqtisodiy geografiya va aholi geografiyasi kabi fanlar kiradi. Mazkur fanlar tadqiqot natijalari asosida aholi haqidagi bilimlar tizimi shakllanadi. Darhaqiqat, aholi qator fanlarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Sababi, aholi – bu hayotning ishlab chiqarish va takror barpo bo'lish jarayonlarida, tabiiy tarixiy ravishda shakllanuvchi va uzluksiz yangilanib turuvchi insonlar birligi, kishilik jamiyatining material komponentidir.

Ma'lumki, aholining yosh-tarkibi aholi takror barpo bo'lish xususiyatlariga bog'liqdir. Aholining takror barpo bo'lishi esa tug'ilish, o'lim, nikoh-ajrim kabi demografik jarayonlar asosida sodir bo'ladi. Shuningdek, aholining oilaviy tarkibi ham oilaning jamiyatda tutgan o'rni, davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, demografik rivojlanish xususiyatlariga, urf, odat va qadriyatlarga bog'liqdir.

Aholi jinsiy tarkibini o'rganishda aniq ko'rsatkch har 1000 ta erkaklarga nisbatan ayollar soni yoki har 1000 ta ayollarga nisbatan erkaklar soni ifodasidir. Misol tariqasida yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib ayollar sonini erkaklar soniga bo'lamiz va natijada 1000 ga ko'paytiriladi.

Aholi tarkibida erkaklar va ayollar salmog'ining tengligi, ya'ni mutanosibligi ularning nikohga kirishiga va oilalar tashkil topishiga qulay vaziyat yaratadi. Lekin, har doim ham jamiyatda erkaklar va ayollar salmog'i teng

bo'la vermaydi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 100 ta qiz bolaga nisbatan tug'ilgan o'g'il bolalar soni 104-107 ni tashkil etadi. O'g'il bolalar miqdorining qiz bolalarga nisbatan yuqoriligi ularning 15-20 yoshlarigacha saqlanib boradi. 20 yoshdan keyin esa jinslar nisbati tenglasha boshlaydi. Chunki chaqaloqlar bolalik va o'smirlar davrlarida qiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalar o'limi yuqoriroq bo'ladi. 15-20, 20-24 yosh guruhlaridan boshlab aholi tarkibida ayollar nisbatan yuqori bo'la boshlaydi. Bu hol qator sabablar bilan bog'liqdir. Yoshlik va o'rta yoshlik davrida erkaklarning ko'p qismi og'ir mehnat bilan mashg'ul bo'ladilar. Shuningdek, ular inson salomatligi uchun zararli bo'lgan alkogolizm, chekish kabi odatlarga beriluvchan bo'ladilar. Natijada ko'plab erkaklar o'rta yoshlik davrlarida hayotdan ko'z yumadilar. Yosh va o'rta yosh erkaklarning o'limiga davlatlar, xalqlar o'rtasida sodir bo'ladigan urushlar ham sabab bo'ladi. Masalan, Yevropa davlatlarida istiqomat etuvchi aholining jinsiy tarkibi deyarli tengdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga qaraganda har 1000 ta ayolga 1009 ta erkak to'g'ri kelgan. Lekin, dunyodagi barcha mamlakatlarda ham ayollar va erkaklar mutanosibligi bir xil emas. Masalan, Osiyo qit'asidagi aholi tarkibida erkaklar ayollarga nisbatan ancha ortiqdir. BMT ma'lumotiga qaraganda, Osiyoda erkaklar ayollarga nisbatan 58 million ko'p edi. Bunday hol Okeaniyada ham kuzatiladi. Dunyodagi iqtisodiy rivojlangan davlatlar aholisi tarkibida ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq. Masalan, statistik ma'lumot bo'yicha har 1000 ta ayolga Germaniyada 910, Fransiya-da-951, Angliyada-954, Italiya-da-946, Kanada-978, AQShda-949 ta erkak to'g'ri kelgan. Qator rivojlanayotgan davlatlarda esa aholi tarkibida erkaklar ayollarga nisbatan ko'proqdir. Ayniqsa, Osiyodagi davlatlarda erkaklar salmog'i ayollarga nisbatan ancha yuqori bo'lib, har 1000 ta ayolga 1041 erkak to'g'ri keladi.

Aholi jinsi bo'yicha erkak va ayollarga bo'linadi. Ularning nisbati esa, jinsiy tarkibini tashkil etadi. Aholining jinsiy tarkibi demografik ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri ostida tashkil topadi. Demografik omillar tug'ilganlar orasida o'g'il va qiz bolalar nisbati, erkak va ayollar o'rtasidagi vafot etish farqi, migratsiya

hisoblanadi. ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, ayollarning jamiyatida tutgan o'rnini, urushlar va boshqa omillar kiradi. Amaliyot shuni ko'rsatayotiki, tug'ilgan har 100 qizga 105-106 o'g'il bola to'g'ri keladi, bu holat erkaklarning umumiy aholi sonidagi ulushining ortishiga olib keladi. Ammo erkaklarda o'lim ko'proq bo'lganligi sababli, bu nisbat asta-sekin to'g'irlanib, yuqori yoshli guruhlarda ayollar salmog'i ortib boradi. Hududlar bo'yicha ko'chib yurish ko'proq erkaklarga xos bo'lib, aholi ko'proq ketadigan joylarda ayollar salmog'i ortib boradi, aholi ko'proq keladigan joylarda aksincha erkaklar salmog'i yuqori bo'ladi.

Jamiyatda ayollarning iqtisodiy ijtimoiy holati, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda, ayollarning vafot etish darajasiga ta'sir ko'rsatib, ularning umumaholi sonidagi ishlarning pasayishiga olib keladi. Aholining jinsiy tarkibini miqdor tomondan tavsiflash maqsadida statistika mutloq va nisbiy ko'satkichlarni qo'llaydi. Mutloq ko'satkichlarga erkak va ayollar soni, ayollar sonining erkaklar sonidan mutloq ortiqchiligi misol bo'la oladi.

Nisbiy ko'satkichlar har 1000 ayolga to'g'ri keladigan erkaklar ulushi, ayol aholini erkak aholiga nisbatan ortiqchiligi — bunda umumiy aholidagi ayollar salmog'i bilan erkaklar salmog'i orasidagi farq olinadi.

Yer yuzida, umuman, erkak va ayollar soni bir biriga to'g'ri keladi. Rivojlangan mamlakatlarda ayollarning salmog'i yuqori, rivojlanmagan mamlakatlarda esa, erkaklarning salmog'i yuqori bo'ladi. Bu holda ayollarning jamiyatda tutgan o'rnini tarixiy va boshqa sabablarga bog'liq. BMT bashoratlariga qaraganda, XXI asr boshlarida erkak va ayollar salmog'i tenglasha boradi.

Aholi jinsiy tarkibini o'rganishda ayollar salmog'ining erkaklar salmog'iga nisbatan nisbiy ortiqchaligini aniqlash muhim hisoblanadi; agar bu ko'satkich 1 % gacha bo'lsa — sezilarli bo'lmagan, 1%—3% — o'rtacha va agar 3% dan yuqori bo'lsa — sezilarli darajadagi farq mavjudligi haqida gap boradi.

Aholining jinsiy tarkibi dinamikasini tavsiflash uchun, erkak va ayollarning o'sish sur'atini solishtirish kabi ko'satkichlardan foydalaniladi. Aholi jinsiy

tarkibini statistik o'rganish mehnat resurslari balansini tuzish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishni rejalashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Jinsiy yosh piramidalari oddiy va murakkab bo'ladi. Murakkablari shu bilan farq qiladiki, jinsiy yosh tarkibini ko'rsatish bilan birga, mehnatga layoqatli aholi soni, band bo'lgan aholi soni va boshqalarni ko'rsatadi. Piramida chizig'ining tavsifiga qarab, aholi jinsiy yosh tarkibining turi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar piramidalari proporsional, har hil uchburchaklarini eslatsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, tor asosli va yuqori qismi proporsional bo'lgan figurani eslatadi. Aholining jinsi va yoshi bo'yicha taqsimlash asosida erkaklarning ayollar ustidan mutlaq ortiqchaligini yoki aksincha, ayollar ortiqchaligini aniqlash mumkin. Odatda, yuqori yoshli guruhlarda ayollar, past yoshli guruhlarda esa, erkaklar soni ko'proq bo'ladi.

Demografik vaziyatning shakllanishida aholining jinsiy tarkibi asosiy omil hisoblanadi. Aholi tarkibida erkaklar va ayollar salmog'ining tengligi, ya'ni mutanosibligi ularning nikohga kirish va oilalarning tashkil topishiga qulay vaziyat yaratadi, biroq har doim ham jamiyatda erkaklar va ayollar salmog'i teng bo'lavermaydi. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, O'zbekistonda 19-asrning 2-yarmi hamda 20-asr boshlarida aholi tarkibida erkaklar salmog'i ancha yuqori bo'lgan.

Toshkent shahri aholisi miqdorida ayollar salmog'i respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoriroq bo'lib, 51,0 %ni tashkil etadi. Buning asosiy sababi shahar aholisining milliy tarkibiga bog'liq. Toshkent shahri aholisining 40-45 %ni boshqa millat vakillari tashkil etadi, ularda ayollar miqdori erkaklarga nisbatan bir qadar yuqori. Bundan tashqari shahar joylarda erkaklar o'limi qishloq joylarga nisbatan ancha yuqori. Masalan, 1989-yilda O'zbekistonda 50-54 yoshdagi har 1000 ta erkak orasida qishloqda 10 tasi o'lgan bo'lsa, shaharda o'lim 13 taga yetgan. Bu ko'rsatkich 70-74 yosh guruhlarida 49-62 ni tashkil etadi. Aholining ko'payishida yoshlar, ayniqsa, 15-19, 20-24, 25-29 yoshli guruhlarining jinsiy

tarkibi alohida ahamiyatga ega, chunki aholi, asosan, mana shu yoshlarda nikohga kirib, oila quradi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, dunyodagi juda ko'p davlatlarda 15-30 yoshlardagi ayollarga nisbatan erkaklarning soni biroz yuqoriligi kuzatiladi. Biroq Yevropa, Avstraliya, Amerikaning ba'zi davlatlarida esa 59 yoshli guruhlardan boshlab erkaklar salmog'i kamayib ketgan. Buning sababi, bu davlatlarda o'g'il bolalar o'limining yuqoriligidir. O'zbekistonda asosiy nikohga kirish yoshlarida erkaklar va ayollar nisbati deyarli tengdir. Bu tenglik ayollarning tug'ish yoshidagi guruhlarda ham davom etadi.


O'zbekistonda aholining yosh tarkibi uning demografik xususiyatlariga va turmush darajasiga bog'liq. O'zbekiston dunyoda tug'ilish darajasi nisbatan yuqori bo'lgan davlatlardan. Biroq o'lkadagi tug'ilishning yuqori darajasi hamma vaqt ham aholining muntazam ko'payib borishini ta'minlay olmagan. 20-asrning 1-yarmida O'zbekistonda bolalar o'limi yuqori bo'lgan va tug'ilgan bolalarning 50-60 % bolalik va o'smirlik davridayoq nobud bo'lishgan. Bu hol aholining yosh tarkibida ham ifodalanadi. Masalan, 1926 va 1939-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisining umumiy sonida 0-9 yoshdagi bolalar salmog'i 23-24 %ni, 1959-1989-yillardagi aholi ro'yxati ma'lumotlarida bu ko'rsatkich 28-32 %ni tashkil etgan.

Aholi tarkibida bolalar salmog'ining oshib borishi 1-navbatda bolalar o'limining keskin kamayishi bilan bog'liq. Bolalar salmog'ining oshib borishiga bevosita ta'sir etuvchi omillardan yana biri O'zbekistonda tug'ilayotgan bolalar sonining ko'payib borishidir. Tug'ilish sur'ati 20-asrning 2-yarmida juda yuqori bo'lgan. Agar O'zbekistonda 1950-yil tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti 30,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, 1960-yilda 39,8 %ga teng bo'lgan. Bu davrda tug'ilgan bolalar 1975-80-yillarda kamolot yoshiga yetganlar va natijada aholi tarkibida 15-19, 20-24 yoshli guruhlarning salmog'i ko'tarilgan. Bu hol esa, o'z navbatida, O'zbekistonda yangi oilalar tarkib topishiga va oilalar miqdorining ko'payishiga olib kelgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda 5 yoshgacha bo‘lgan go‘daklar soni 4,4 million nafar, 5–13 yoshdagi bolalar 6,1 million nafar, 14–30 yoshlar oralig‘idagi yoshlar soni 9,6 million nafarni tashkil etgan. Mamlakatda 31–59 yoshli o‘rta yoshdagilar eng ko‘p – 13,2 million kishi, 60 va undan katta yoshdagi keksalar soni 3,5 million nafarga yaqinlashgan. Aholining yosh guruhi – umumiy yoshi va boshqa xususiyatlari bilan birlashtirilgan insonlar guruhidir.

Yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi

2024-yil 1-yanvar holatiga



Manba. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlaridan olingan

BMT ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekiston aholisining yosh tarkibi dunyo aholisi yosh tarkibiga taqqoslansa, bolalar salmog‘ining ancha yuqoriligi kuzatiladi.

O‘zbekiston qarish shkalasi bo‘yicha jahondagi aholisi „yosh“ davlatlar qatoriga kiradi. O‘zbekistonda mehnat yoshi erkaklar uchun 16-59 yosh, ayollar uchun 16-54 yosh qilib belgilangan. Mehnat yoshidan yuqori, ya’ni 55 va undan katta ayollar, 60 va undan katta erkaklar soni 1991-2024-yillarda 14,8 % ga oshdi. Umumiy aholining 50,4 foizini erkaklar, 49,6 foizini esa ayollar tashkil qilgan.

Doimiy aholisi tarkibi jinsi va yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilinganda, erkaklar guruhida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar (2,3 million kishi) eng ko'p, 60–64 yoshlilar eng kam (657 ming kishi) bo'lib chiqqan. Ayollar tarkibida ham son jihatdan 4 yoshgacha bo'lgan qizlar (2,1 million kishi) eng yuqori, 60–64 yoshlilar (736 ming kishi) eng past ko'rsatkichni qayd etgan.

Tahlillarga ko'ra, respublikada jami aholining 56,4 foizi mehnatga layoqatli yoshda, 32 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichik, 11,6 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattadir.

Shundan erkaklarning mehnatga layoqatli yoshdan kichiklari 33 foiz, mehnatga layoqatli yoshdagilari 58,5 foiz, mehnatga layoqatli yoshdan kattalari 8,5 foiz bo'lgan. Ayollardan 31 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichik, 54,2 foizi mehnatga layoqatli yoshda, 14,8 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelgan.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – Mehnat kodeksiga muvofiq, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollardan tashkil topadi. Bunda 16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi.

So'ngi 20 yil ichida O'zbekiston aholisining o'rtacha yoshi ko'tarilib bormoqda. Xususan, joriy yil boshida (1-yanvar) mamlakat aholisining o'rtacha yoshi erkaklarda 28,5 yoshni, ayollarda 30 yoshni tashkil etgan. O'n yil ilgari (2014-yilda) erkaklarning o'rtacha yoshi 27,3 yosh, ayollarniki 28,6 yosh bo'lgan. 2004-yilda esa erkaklarda 24,8 yosh o'rtacha, ayollarda 26,1 yosh o'rtacha yosh chegarasi hisoblangan. Respublikada 2023-yilda aholining tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 74,7 yoshni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich tug'ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish yillari qanchaligini anglatadi.

O'zbekistonda bugungi demografik vaziyat, ayniqsa, tug'ilish jarayonining kamayib borishi (1991-yilda tug'ilish ning umumiy koeffitsiyenti 34,5% ni tashkil

etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 24,9 %ga teng bo'ldi yoki 9,6 % ga kamaydi) yaqin kelajakda jami aholi salmog'ida qariyalar ulushining ortib borishidan dalolat beradi. Bu hol esa, O'zbekistonda qariyalarning ijtimoiy-demografik guruh sifatidagi mavqei oshib borishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, maqolada aholining demografik tarkibini o'rganishning iqtisodiy geografik xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilinib, aholi soni, yosh-jinsiy tarkibi hamda takror barpo bo'lish jarayonlari jamiyat taraqqiyoti va turmush darajasi bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, demografik vaziyatning shakllanishida aholining yosh-jinsiy tarkibi hal qiluvchi omil bo'lib, tug'ilish, o'lim, nikoh-ajrim kabi demografik jarayonlar uning asosiy ko'rsatkichlarini belgilaydi. Shuningdek, aholining jinsiy mutanosibligi nikoh va oilaviy munosabatlarga ta'sir etishi, yosh tarkibi esa mehnat resurslari va iqtisodiy faol aholining shakllanishida muhim o'rin tutishi qayd etilgan. O'zbekiston aholisi yosh davlatlar qatoriga kirsada, tug'ilish darajasining nisbatan pasayishi natijasida keksalar ulushining ortib borishi kuzatilmoqda, bu esa kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, aholining yosh-jinsiy tarkibini muntazam o'rganish va tahlil qilish iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, mehnat bozorini boshqarish hamda barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo'riyeva M., Tojiyeva Z., Zokirov S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Toshkent -2011.
2. Bo'riyeva M.R. Demografiya asoslari. Toshkent., 2001 y.
3. Qayumov A. va boshqalar. Aholi geografiyasi va demografiyasi. Toshkent-2011.
4. Tojiyeva Z. N. Aholi geografiyasi. Darslik. Toshkent: "Noshir", 2019.
5. Kadirov M.A. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan. Darslik. – Toshkent, 2019.
6. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси. Дарслик. – Тошкент, 2014.
7. Солиев А. С. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт.-Т.: Камалак, 2013.
8. Медков Ф. Основы демографии. Учебник. –М., 2004.

9. Муродова Д.С. Экономико-географические особенности населения Кашкадарьинской области // Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. № 2 (81), 2021. – С. 55-58
10. Murodova D.S. Economic geographical factors affecting the formation of city addresses // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume 12, India, 2022. – P. 29-34.
11. Murodova D.S. Main Characteristics Of The Demographic Situation And Economic And Social Development Of Kashkadarya Region // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023. – P. 32-35.